

“QUYOSHIM - ENAM” QISSASIDA ONA OBRAZI TALQINI

Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13137506>

Annotatsiya. Ushbu maqola avtoiografik yo'nalishda. Adabiyotda Ona obrazi turli tillarda, yorqin buyoqlarda ifoda etilgan. Bu obrazlar bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi. Ammo ular bir-birini to'ldiradi va boyitadi.

Kalit so'zlar: Guljahon Mardonovaning “Quyoshim – enam” voqeiy qissasi, ena. Ota, milliy ruh, qissa.

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN THE STORY "MY SUN IS MY MOTHER"

Abstract. This article is about autobiography. In literature, the image of the mother was expressed in different languages, in bright paints. These images do not resemble each other, do not repeat each other. But they complement and enrich each other.

Key words: Event story “My Sun – enam” by Guljan Mardonova, ena, father, national spirit, story.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В РАССКАЗЕ «МОЕ СОЛНЦЕ – МОЯ МАТЬ»

Аннотация. Эта статья автобиографична. В литературе образ Матери выражен на разных языках и в ярких красках. Эти изображения не похожи друг на друга, не повторяют друг друга. Но они дополняют и обогащают друг друга.

Ключевые слова: правдивая повесть Гуляхон Мардоновой «Мое солнце – моя любовь», здесь. Отец, национальный дух, история.

Adabiyotda Ona obrazi turli tillarda, yorqin buyoqlarda ifoda etilgan. Bu obrazlar bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi. Ammo ular bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Adiba Guljahon Mardonovaning «Quyoshim – enam» voqeiy qissasi Ona obrazini yaratishda mutlaqo yangi yo'ldan borgan. Guljahon Mardonova yaratgan Ena – yurtimizning janubiy sarhadlaridan bo'lmish Qashqadaryoliklarga xos. Xarakter xususiyati, hayotga qarashi, munosabati, bola tarbiyasidagi o'ziga xosligi, liboslari-yu qishloq ayollariga xos taqinchoqlari bilan adabiyotdagি boshqa onalar obrazidan ajralib turadi. Kitobga so'zboshi yozgan filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov «Qishloq tongi. Ko'rpalarga burkanib olgan bolalik. Beshikda u xlabelotgan chaqaloq, tuya va sigir sog'ayotgan ona. Bularning barida latiflik, tabiiylik, obrazlilik – bir so'z bilan aytganda chinakam ko'ngil mavjları, chin adabiyot bor, o'ziga xos she'riyat bor»,

deb yozganda haqdir. Olim «Hamma zamonlarda billur tomchida quyoshning nuri aks etadi. Guljahon Mardonovaning «Quyoshim – enam» kitobi bir qarashda bitta oila tarixiga, bitta Badaxshon qishlog‘i udumlari va odamlariga bag‘ishlangandek ko‘rinadi. Fayzli kunlar, bayramlar, hayit va to‘ylar Onaning ko‘z o‘ngidan o‘tadi. Ayni damda bunda boshiga yog‘ilgan fojiali kunlarda Xudoning qismat imzosiga bo‘yin egib, jigarlariga «Xudoning yozgani – yoqalashasanmi?» deb sabr tilagan chinakam o‘zbek Onasining timsoli mujassamdir», deya ta‘kidlaydi. Qolaversa, kitobda chin mehnatning gashti, deylik, jun titish, ip yigirish, jo‘lxurs, tuzliq, bo‘g‘cha, g‘ojari, arabi gilam to‘qish, kigiz bosish, joypesh tikish – nomlari unutilayotgan qadriyat va hunarlar bayoni keladi. Xo‘sish, bu ishlarni bugungi yosh onalarning qay birlari biladi? Mutolaa davomida ana shunday haqli savollarni qo‘yaverasiz. O‘z-o‘zidan kitobdagagi voqealar ichra yashay boshlaysiz. So‘ngso‘z muallifi filologiya fanlari doktori, professor Nishonboy Husanov esa «Muallif o‘zbek tilining, xususan, umumxalq tilining nihoyatda boyligini qissadagi aniq tasvir va izohlarda namoyon qilgan, o‘ziga xos ta’sirli birikmalar, gaplar tuzgan: «ajiriqning tomiriday tomirmiz». Qissadagi so‘zlardan o‘zbek tilining to‘liq va ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzishda o‘ziga xos manba sifatida foydalanish mumkin. Ayniqsa, enaning «duk urdi» marosimidagi kishtala qo‘shig‘i, Jilboshi qo‘shig‘i, o‘zi to‘qigan aytimlar va allalar o‘quvchini hayratga soladi», deb ta‘kidlaydi.

Qissadagi barcha voqelik «ko‘ylaklaridan qalampirmunchoqning o‘tkir, muattar hidi kelib turgan» Ona obraqi tegrasida birlashadi. Qissa 29 bo‘limdan iborat bo‘lib, ular mantiqan va shaklan bir-biri bilan bog‘langan. Ya‘ni har bir bo‘limdagi hikoyada onaning o‘ziga xos fazilatlari va ichki dunyosi oolib berilgan. Bir so‘z bilan aytganda, kitobdagagi voqealar samimiyl, badiiy bayon etilgani bilan kitobxon diqqatini o‘ziga torta oladi.

“...Enam uyda mol-hol so‘yilguday bo‘lsa yuragini avaylab oldirib qo‘yadi:

– Akalaring jeydi, jo‘raklari tovday bo‘lsin, iloyim.

Jigari-yu bo‘yragini olib qo‘yadi validam:

– Kelin, chalaroq qilib qovur, bolalarimning bo‘yrak, jigarisov bo‘lsin. Otang aytuvdi Ibn Sino yozganakan, odam qaysi a’zosisov bo‘lishini xohlasa mol, qo‘yning ana shu a’zosini tez-tez jeb turishi keragakan, – deydi mehribonim.

Bu mehrli gaplarni eshitib akalarimning ko‘zlarida yana chaqmoq chaqnaydi:

– Ota, ena, bila jeymiz, – deyishadi ular.

Dasturxon yozilib, ovqat suzilib, tovoq keltirilsa, enam hovlining to‘riga ovoz beradi:

– Bobo-yov, kelag‘ang, ovqat sovidi...

Otam qotma, bo‘yi o‘rtadan baland, yuzi zahiltob, malla-yashil aralash ko‘zlar o‘tkir, qoshlari o‘siq, har bir so‘zidan aql va mantiq aks etib turadigan odam. U qarashlari ma’nili,

ma'rifatli, bilimli, gapi keskir,adolatsizlikni yomon ko'radigan, yetim-esirni, ojizlarni qo'llaguvchi, ana shu masalada qarshilik ko'rsatganlarga nisbatan shafqatsiz odam. Otam o'zining obro'sini biladi. O'ylamay, mulohaza qilmay gapirmaydi. Gapi o'tkir va achchiq, toshni kesadi. O'n to'rt yoshida hashar yo'li bilan maktab qurdirgan, qishloqning bиринчи ziyolisi. O'n sakkiz yoshidan maktab rahbari lavozimida ish boshlagan. Elning oldi otam. Otam tufayli bizning uy maslahatxonaga o'xshaydi. Biz bilgan, bilmagan odamlar boshiga yaxshi yoki yomon kun tushsa, otamni daraklab kelaveradi. Va ular hech mahal bizning uydan non-nasibasiz chiqib ketmaydi. Yaxshi-yu yomonga, tanishu notanishga dasturxonimiz hamisha ochiq. Ana shu elning oldi otam ovqat suzilganini eshitsa ham shoshilmay, xotirjamlik bilan uy tomon yuradi. Xotirjamlik bilan ust-boshini qoqadi. Yanada xotirjamlik bilan qo'l-betini yuvadi, shoshilmay artinadi. O'ziga ishonch bilan dasturxonning to'ridan joy oladi. Ana shunday. Bizning uyda otam dasturxon boshiga kelmaguncha tovoqqa qo'l cho'zilmagan hech mahal. Bularning bari bizning ongu shuurimizga saboq bo'lib singigan. Bu enamning sabog'i". Aytish joizki, muallif ushbu qissada ONA obrazini yaratishda mutlaqo yangi yo'ldan borilgan. Ona o'zining ruhiy va ma'naviy olami, irodasi, sabri, bardoshi, qanoati, kerakli o'rirlarda o'zbekona xayrli tadbirleri bilan millat tarbiyachisiga aylanadi. Asarni o'qigan kitobxon millat "xaritasi" bo'ylab sayohat qiladi. Asarda yuksak insoniy hislar bilan sog'inch tuyg'ulari uyg'un keladi, deb ta'kidlandi. Ota, ona, aka-uka, qarindoshlarning go'zal insoniy fazilatlari, jasorati, shijoati bitilgan sahifalarini o'quvchi entikib o'qishi tabiiy. Asarda xalq ichida yurgan og'zaki ijodning turfa ko'rinishlari – marosim qo'shiqlari, ertak, rivoyat, maqollar ham bevosita ona obrazi orqali taqdim etiladi.

Asar zavqlanib o'qishga arziydi, hikmatlari, hayajonlari ham, aytimlari, hikoyatu rivoyatlari, tasvir va talqinlari ham hammaga birdek ma'qul keladi.

Voqeа-hodisalar asosan onaning hayoti – kundalik turmush tashvishlari, farzand tarbiyasi, turmush o'rtog'ini qadrlash, qarindosh-urug'lar va qo'ni-qo'shnilarga munosabati asosida izchil va mantiqiy ohib berilgan.

Asarning "Qo'rg'onim otam", "Ko'pkari voqeasi", "San'at saodati" bo'limlarida otaning, "Badaxshonlik professor" bo'limida akaning, ba'zi bo'limlarda oila a'zolarining qanday inson ekani hayotiy voqealarda aks etgan bo'lsada, oiladagi ahillik, totuvlik, mehribonlik, oqibatilikning shakllanishida onaning fazilatlari – mehnatkashlik, farosatlilik, sabr-bardoshlik muhim o'rin tutishi o'z ifodasini topgan.

Kitob qahramoni sifatida enasi Xadicha onaxon hayotini so'zlash orqali ona obraziga cheksiz mehr va muhabbat, teran mahorat bilan tasvirgan. Bu kitob har bir o'quvchida katta taassurot qoldirishi shubhasiz.

Hadisda "Jannat onalar oyog'i ostidadir", - deyilgan. Guljahon Mardonovaning "Quyoshim

– enam” kitobini o‘qir ekanmiz, hadislarning naqadar purma’no va haqqoniyligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

REFERENCES

1. Imomova G. Milliy va umuminsoniy xarakter sintezi. Jahon adabiyoti, 2005 yil, 8-son.
2. Yo‘ldoshev Q. Anglashning azobli yo‘li. Guliston. 2005 yil, 1-son, 22-35- betlar.
3. Hamdamov U. Turfa ranglar uyg‘unligi. O‘zbekiston adabiyoti va san'ati, 2000 yil, 29-sentyabrъ.
4. Normatov U, Ochilov E. Tanqid, munaqqid va hozirgi adabiy jarayon. O‘zbek tili va adabiyoti, 200 yil, 4-son.